



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING ONA TILI VAO'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI MILLIY QADRIYATLARIMIZNI O'RGANISHNING SAMARALI OMILLARI

---

*Sh.B.Jumanova*

*“University of business and science”*

*Nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quv mashg'ulotlari jarayonida intellektual meroslarning tub mohiyati, didaktik tahlili va tarbiyaviy tahlillarning yaxlitligida amalga oshirilishi, qolaversa jarayonni amalga oshirishda darsning didaktik va tarbiyaviy maqsadini aniqlash, qanday ta'limiy va tarbiyaviy tushunchalar, nazariy bilim berishga e'tibor berish lozimligi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining yo'nalishlari, darslik materialini o'rganish bosqichlari, hajmi, vaqti belgilanadi – dars jarayonida qo'llaniladigan usullar: darslik bilan ishlash, mustaqil og'zaki va yozma ishlarni tashkil etish, muammoli vaziyat yaratish, didaktik o'yinlardan foydalanish va boshqa ta'limiy va tarbiyaviy ishlar tizimi haqida fikrlar yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** dars, maqsad, jarayon, darslik, o'qituvchi, usullar, o'quvchi, sinf, yo'nalish, harakat, didaktik, muloqot, natija, tajriba.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zbek xalqining ilmiy merosini o'ragnish vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish uslubiyatini ishlab chiqish shu jarayonning samaradorligini ta'minlovchi omillarni aniqlab olishni taqozo etadi.

O'quvchi muhitda faoliyat jarayonida o'zligini anglashni shakllantirish uchun ma'naviy qadriyatlar bilan harakat orqali muloqotga kirishadi. Harakatsiz muhit, faoliyat bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari ilmiy dunyoqarashini shakllantirish samaradorligini ta'minlash ma'naviy harakat omiliga ham bog'liq.

O'zbek xalqi milliy qadriyatlarning ma'naviy-axloqiy tajriba, maxsus tashkil etiladigan nutqiy aloqalar asosida o'quvchi ongiga singdiriladi. Nutqiy aloqalar tarbiya jarayoni ob'ektlari o'rtasida kechadi va o'quvchi ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonida omil bo'lib xizmat qiladi.



Bunday aloqalar o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining barcha qirralarini qamrab olgan taqdirda ilmiy ma'naviy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining xulq namunasi, ma'naviy harakati, nutqiy aloqalari samarasi o'qituvchi va o'quvchining o'z faoliyatlariga munosabatlari bilan belgilanadi. O'zbek xalqining intellektual merosni tarixiy taraqqiyot bosqichlari asosida o'rganish, tarbiyaviy mohiyatidan ta'sirlanish va amaliy faoliyatda ularga tayanish, umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilishini ta'minlash, insoniyat tarixida shaxs va jamiyat ma'naviy madaniyatini tarbiyalashda tutgan o'rniga haqqoniy baho berish ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan (o'qituvchi-o'quvchi) ijodkorlikni talab etadi.

Ijodkor o'qituvchi ashyoviy va ma'naviy-ilmiy merosni, qadriyatlarning boshlang'ich sinf o'quvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchi ma'naviy ilmiy merosini shakllantirishning muvaffaqiyati o'qituvchi va o'quvchi ijodkorligi omiliga ham bog'liq. Bu omilni harakatlantiruvchi shartlar mavjud bo'lib, ular o'qituvchining umumpedagogik va maxsus ixtisoslik bo'yicha chuqur bilimi; kasb mahorati; o'quvchilar bilan do'stona muloqot madaniyati; ma'naviy madaniyat darajasi; ta'lim-tarbiyaning samarali shakl va usullarini tanlay bilishi; natijani oldindan aniq tasavvur etish va pedagogik faoliyatni shunga asoslanib yo'llay olishi; qiziqish doirasining kengligi; oilaviy muhiti; maktab jamoasi ichidagi mavqei; ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga, o'z ustida ishlashga intilish darajasi va boshqalardan iboratdir. O'qituvchi ijodkorligi omiliga e'tibor natijasida o'quvchi ajdodlar tarixi, adabiyoti, san'ati, an'analari va urf-odatlar haqida chuqur va puxta asosli bilim oladi; ma'naviy qadriyatlarning mohiyati va mazmunini tahlil etish, qiyosiy o'rganish, xulosa chiqarish, umrboqiyiligini ta'minlashda faol nuqtai nazarda bo'lishga o'rganadi; ajdodlar madaniy merosi asosida mantiqiy fikr doirasi kengayadi, ta'lim-tarbiyaga yaxlit munosabat paydo bo'ladi; savodxonlik darajasi o'sadi; ma'naviy qadriyatlarni maktabda, oilada, bo'sh vaqtda chuqur o'rganishga ehtiyoj asosida faollik, ijodkorlik; tashabbuskorlik namoyon bo'la boradi; turli ijodiy ishlarga (insho, referat; annotatsiya, tezis yozish, musobaqalar, musohabalar, oila an'anasi shajarasini tuzish; o'zbek xalqi an'analarini, urf-odatlarini, rasm-rusumlar; adabiy-badiiy; ilmiy qadriyatlari asosida jadvallar tuzish va h.k.) qiziqishi ortadi. Bu xususiyatlarning shakllanishi o'quvchi ijodkorligi omiliga ham bog'liq bo'lib, u qator sifat belgilari: ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga qiziqish, ehtiyoj va talabning kuchliligi; fan asoslarini egallashga ijobiy munosabati; ma'naviy madaniyat saviyasi,



dunyoqarashi, o'z-o'ziga talabchanligi; atrof-muhitga ongli va faol munosabati; ijtimoiy va shaxsiy faolligi; nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasi; tashabbuskorligi va ijodkorligi bilan xarakterlanadi.

Bunday ma'naviy muhit uchun o'qituvchi bilim saviyasining o'quvchilar talabiga mosligi; o'qituvchi uslubiyatidagi rang-baranglik; o'qituvchi va o'quvchi, maktab pedagogik jamoasi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlarning sofligi; sinf jamoasini o'quv qo'llanmalari, o'quv vositalari bilan ta'minlash darajasi; maktabning moddiy va ma'naviy bazasi (kutubxona fondi, o'quv zallarining mavjudligi, ko'rgazmali qurollar, texnika vositalari bilan ta'minlanishi va h.k.); o'quvchi oilasining ma'naviy muhiti (oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bo'sh vaqtni tashkil etishga e'tibor va h.k.) kabilar muhim rol o'ynaydi.

O'quvchi ma'naviy muhitning faoliyat jarayonida xulq namunasi orqali o'z ma'naviy qiyofasini namoyon eta boradi. Bu o'rinda sub'ektning shaxsiy va ijtimoiy harakati nutqiy aloqalar, pedagogik muloqot zamirida shakllanib, takomillashadi.

Pedagogik muloqotda o'qituvchi shaxsining sifatlari va uning xatti-harakatlari o'quvchining ideali sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining o'qituvchi shaxsi haqidagi qarashlari uning xatti-harakati, pedagogik mahorati, ma'naviy madaniyatiga mos kelmasa, yaxlit pedagogik jarayonni tashkil etish ham ijobiy natija bermaydi. O'qituvchi sub'ekti bilan o'quvchi ob'ekti o'rtasidagi qattiq intizom ham pedagogik jarayonga salbiy ta'sir etadi va ob'ektning ichki hissiyoti hamda shaxsiy sifatlariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ajdodlarimiz milliy qadriyatlarning ma'naviy madaniyatining tarkib topish belgilari: ma'naviy ehtiyoj, talab, qiziqish, o'z-o'zini anglashi, ma'naviy muhit va faoliyat jarayonida turli omillar: o'quvchi shaxsining xulq namunasi, xatti-harakati, o'zaro nutqiy aloqasi, o'qituvchi va o'quvchi ijodkorligi kabi omillar ta'sirida shakllanib boradi. Bunga dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida e'tibor berish talab etiladi.

Umumiy ta'lim maktabi boshlang'ich sinflarida ilmiy meroslar mohiyatini o'rganish, tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish asosan dars jarayonini tashkil etish; uning asosiy tarkibiy qismlariga qo'yiladigan talablarga ijodiy yondashishga bog'liq.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi turli usullar vositasida mavzu mohiyatida olg'a surilgan asosiy g'oya negizida qator intellektual meros dinamikasi bilan tanishish jarayonida ularda xalqimiz qadimdan ulug'lab kelayotgan insoniy fazilatlar shakllanib boradi. Masalan, 2- sinf ona tiliva o'qish savodxonligi darslarida berilgan Yaxshi fazilat insonga ziynat bo'limidagi « Shirin so'zim risq-u ro'zim» mavzusi



orqali o'zbek xalqining o'ziga xos insonparvarlik, qanoatlilik va saxovatlilik qadriyatlarining mohiyatini o'quvchi ongiga singdirishda ularning mazmunini ochib beruvchi qator tushu nchalarga ham to'xtaladi. O'quvchi dars jarayonida qanoat negizida – o'zga ham, ko'pga ham, o'g'irlikka ham, xursandchilikka ham ko'nikish, sabr qilish, nafsni tiyish ekanligi; ochko'zlik – qanoatsizlik, sabrsizlik, natijasi sifatida insonparvarlik – kishilar o'rtasidagi mehr-oqibat, muruvvat, saxiy qalblilik, imon, do'stlik, birodarlik, muruvvat me'yorini belgilovchi xislat; saxovat – himmatlilik belgisi; qanoat, saxovat, insonparvarlikning ahamiyati; yoshlar o'rtasidagi sabrsizlik, ochko'zlik, razolat, jaholatning tub negizlari va ularni bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumot oladi.

O'qituvchi ushbu intellektual meros mohiyatini ochib berishda avvalo, qanoat, insonparvarlik, saxovat tushunchalari dinamikasiga murojaat etadi. Biz bu dinamikani quyidagicha izohladik: insonparvarlik, qanoat, saxovat – ezgulikdir (ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z «Avesto»); insonparvarlik, qanoat, saxovat – yovuzlik va Yaxshilik o'rtasidagi kurash natijasi, Yaxshilikning g'alabasidir (animizm, totemizm, magik tasavvurlar); bu tushu nchalar Yaxshi, tinch, farovon hayot kechirish negizi bo'lib, xalq amaliy faoliyati aynan shu nga yo'naltirilgandir (xalq pedagogikasi); insonparvarlik, qanoat, saxovat, imon, e'tiqodning asosidir Hadislarda bular – mehr-muruvvatli komil inson uchun asosiy mezon bo'lib, ularning negizida ilmlilik, adolatparvarlik, tenglik, do'stlik, birodarlik mujassamlashgan (SHarq allomalari Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va b.q.); sharq xalqlariga xos barcha yuksak fazilatlar milliy g'urur, o'zlikni namoyon etish kalitidir. (Klassik adiblar: Yusuf Xos Hojib, Sa'diy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy, Bobur va b.q.)

Insonparvarlik, qanoat, saxovat qadriyatlarining bu dinamik holati qadimgi yozma yodgorliklar, xalq tajribasi, xalq og'zaki ijodi manbalari, diniy ta'limot, Sharq mutafakkirlari ma'naviy merosi; klassik adabiyot namunalariga asoslangan holda o'quvchi ongiga singdiriladi.

Tajribalar natijasi shu ni ko'rsatadiki, insonparvarlik, qanoat, saxovat intellektual meroslarning mohiyatini ilmiy asosda o'quvchi ongiga singdirish orqali ular quyidagilarni egallab oladilar: bu fazilatlar komil insonlarga xos bo'lib, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega ekanligi; ularning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotiga ta'sirini, sharq xalqlari hamma vaqt, har qanday vaziyatda ham bu fazilatlar uchun intilganligi, kurashganligi va targ'ib etganligi; milliy g'ururning asosi ekanligi; olimlar, fozillar, shoirlarning ijodidagi asosiy g'oya sifatida targ'ib qilinib kelayotgan eng muhim intellektual meros ekanligi. eng



muhimi boshlang'ich siif o'quvchilarida milliy asosga ega insonparvarlik, hurmat, muruvvat, kattalarga qanday muomila qilish kerakligini ularni hurmat izzat qilishni saxovat ko'rsatishga ehtiyoj oshadi. Xalqimizning asrlar davomida yaratib qoldirgan intellektual meroslarga hurmat, mehr-oqibat hissi shakllanadi. Bu ma'naviy ehtiyojning o'sishi o'quvchilar bilan juftlik va jamoa tartibida og'zaki suhbatlar uyushtirish, yozma so'rovlar o'tkazish, o'quvchi faoliyatini kuzatish orqali aniqlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi ma'naviy ehtiyoj, talab, qiziqishni qondirish asosida intellektual merosning o'rgatishning muhim usullaridan biri dars jarayonida ilmiy manbalarning maxsus tahlilini uyushtirishdir.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslaridan barcha bosqichlarida o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, kayfiyati, fikri, bilim saviyasi va yosh xususiyatlariga mos ilmiy bilim va intellektual meros mezonlari o'qish darslari orqali singdiriladi. Ta'limning boshlang'ich va o'rta bosqichida eng oddiy kundalik intellektual meros: salomlashish, kattalarga hurmat, ovqatlanish odobi, tug'ilib o'sgan yerga muhabbat hissi, mehnatsevarlik tuyg'usi, Markaziy Osiyolik allomalar, fozillar, shoirlar, badiiy-estetik qadriyatlar (milliy o'yinlar, taqinchoqlar, taomlar va h.k.) haqida ma'lumot bilan chegaralaniladi. Boshlang'ich sinfda esa mantiqiy tahlil asosida ilm-fan, adabiyot, san'at, xalq amaliy san'ati o'zbek xalqining milliy g'ururini himoya qilgan va xalqni shunga da'vat etgan ulug' insonlar olg'a surgan asosiy g'oya ilmiy-tarixiy ma'lumotlar orqali o'quvchi ongiga singdiriladi. Bunday tahlil o'quvchini intellektual meros haqida chuqur bilim olishga, ish va so'z birligini ta'minlashga, ajdodlar merosini mantiqiy izchillik asosida o'zlashtirishga va egallagan bilim, intellektual meros tushunchalar asosida millat, xalq, Vatan, ajdodlar oldidagi burch, vijdon, g'urur hissining shakllanishiga samarali ta'sir etadi.

O'quv mashg'ulotlari jarayonida intellektual meroslarning tub mohiyati didaktik tahlil va tarbiyaviy tahlillarning yaxlitligida amalga oshiriladi. Bu jarayonni amalga oshirishga darsning didaktik va tarbiyaviy maqsadi aniqlanadi, qanday ta'limiy va tarbiyaviy tushunchalar, nazariy bilim berishga e'tibor berish lozimligi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining yo'nalishlari belgilab olinadi, darslik materialini o'rganish bosqichlari, hajmi, vaqti belgilanadi – dars jarayonida qo'llaniladigan usullar: darslik bilan ishlash, mustaqil og'zaki va yozma ishlarni tashkil etish, muammoli vaziyat yaratish, didaktik o'yinlardan foydalanish va boshqa ta'limiy va tarbiyaviy ishlar tizimi tanlanadi; o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'rifiy manbalardan zaruriy bo'limlar, parchalar, asarlar ajratib olinadi, qo'shimcha materiallar belgilanadi; o'rganiladigan mavzuning



xarakteri va mazmuniga mos didaktik materiallar, ko'rgazmali vositalar aniqlanadi; mavzuning xarakteridan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya birligi, fanlararo, mavzulararo aloqani ta'minlash, mavzu asosida olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlovchi savollar, varaqalar, jadvallar, ijodiy ishlar, topshiriqlar ajratiladi; uyga beriladigan vazifalar uchun material tanlash va uning xarakteri, turlari belgilanadi; darslarni tashkil etish usullari, yo'llari aniqlanadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida intellektual merosni didaktik va tarbiyaviy tahlil etib o'rganishda voqealarning borishi, qahramonlar, ularning tavsifi, asar qahramonlarining o'zaro munosabati, asarning g'oyasi va mavzusi, kompozitsion qurilishi, asarning tili kabi masalalar orqali o'quvchi ma'naviy dunyosi shakllantiriladi.

Shuni qayd etish lozimki, 2-4 sinflarda o'rganiladigan barcha turdagi matnlarni, ularning boblarini bir xilda (yuqoridagi tahlil tizimiga binoan) tahlil etish mumkin emas. Muhimi turli materiallar asosida o'quvchilarni savollar vositasida matndagi timsollarni ajrata bilishga, voqealarning borishi va umumiy-g'oyaviy-tematik yo'nalish, tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil etishga o'rganishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan olib borilgan tadqiqotlar natijasi ona tili va o'qish savodxonligi darslarida uyushtiriladigan tahlilning shaklan va mazmunan xilma-xil ekanligidan guvohlik beradi. Ular mazmunan eng qadimgi yozma adabiy manbalar; xalq og'zaki ijodi; diniy manbalar; klassik adabiyot namunalari; pandnoma xarakteridagi manbalar; ona tili va o'qish savodxonligi kitobidagi intellektual meros bo'limlarida ta'lim-tarbiyaviy tahlili, shaklan kirish mashg'ulotlari, monografik, ma'lum bir adib hayoti va faoliyati, asari, ijobiy timsollar asosida uyushtiriladi. O'quvchi ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda badiiy asar tahlili katta imkoniyatlarga ega. Badiiy asarni didaktik va tarbiyaviy tahlil etish orqali unda tasvirlangan intellektual meroslarni o'quvchi ongiga singdirish yozma va og'zaki, juftlik va sinf jamoasi shaklida amalga oshiriladi. Badiiy matnni yozma va juftlik tahlil etishning o'quvchi ma'naviy saviyasini oshirishga ta'siri kuchliligi aniqlandi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslari jarayonida ma'lum bir ilmiy manba yoki qadriyat asosida amalga oshirilgan tahlil uchun umumiy xarakterga ega savollardan misollar keltiramiz. Ma'naviy va intellektual merosning mohiyatini qanday izohlaysiz? Sharq xalqlarining qanday qadimiy ma'naviy merosini bilasiz, uning mohiyatini izohlang. U yoki bu ma'naviy meros negizida qanday ma'naviy-ruhiy qadriyat g'oyasi ilgari surilgan? Intellektual merosning paydo bo'lishi insoniyat tarixining qaysi tomonlari bilan bog'liq? Nima sababdan ilmiy manbalar



sharq xalqlari uchun muhim qadriyat hisoblanadi? Badiiy asarlar timsollar xarakterida qanday milliy xususiyatlar mujassam bo'lgan? Markaziy Osiyo xalqlarining boy ma'naviy merosini qanday izohlaysiz? Oilaviy-maishiy an'analar, urf-odatlardan qaysi birlari qadriyat bo'la oladi va ularning ahamiyatini qanday baholaysiz va h.k. Ushbu savollarga beriladigan javoblarda ma'naviy meros va intellektual meroslarning ahamiyatini ochib berilishi, ularning turmush bilan aloqasining aniq ifoda etilishi, o'rganiladigan mavzu matnining tarbiyaviy ahamiyatini belgilashda muhim mezon hisoblanadi. Shuning uchun har bir savolga bir necha mazmundagi va ko'rinishdagi javoblar berilishi lozim, shunda javoblar ichidan eng mazmunli, to'g'ri, haqqoniysi ajratib olinadi va o'quvchilarning bilim va tarbiyasini mustahkamlashda ulardan foydalaniladi.

Savollarga berilgan javoblar mazmunida intellektual meros tushunchalari, badiiy tasvir vositalari, manba syujetidagi asosiy va qo'shimcha g'oyalar, asar personajlariga xos xatti-harakatlar, xulq-atvor mezonlari, muallifning mahorati kabi masalalar o'quvchilar ongida qaytadan tiklanadi, mustaqil ravishda o'z fikr va mulohazalarini ifodalashga o'rganadilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Intellektual meroslar mohiyatini o'qish darslaridagi intellektual meros bo'limining tahlili asosida ochib berilishi boshqacha tarzda, ya'ni o'quvchilar tomonidan sahnalashtirilgan holda, rollar asosida obrazli tarzda tahlil etilishi, timsollarning ichki va tashqi ruhiy holati xatti-harakatlar orqali sinf jamoasi ko'z o'ngida namoyish etilishi mumkin. Bunday usul o'qituvchi uchun gramatik asarning mohiyatini o'quvchi ongiga chuqur singdirishdek maqsadni muvaffaqiyatli hal etishga, o'quvchi esa timsollarning ichki va tashqi ma'naviy olamini ko'rgazmali o'zlashtirish, bevosita voqealar borishida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekisti Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun yangi tahriri (2020 yil 7.08.).
2. Sh.Sh. Mirziyoyev "O'zbekistonda yangi bir uyg'onish-uchinchi renessans davriga poydevor yaratilmoqda" mazmunidagi nutqi.(2020.1.10.)
3. E.Umarov, R.Karimov, M.Mirsaidova, G.Oyx'o'jayeva "Estetika asoslari". O'quv qo'llanma. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2010y.
4. M.Quronov "Milliy tarbiya va yoshlar" Kamalak nashriyoti 2016-y.



5. R.Mavlonova, N.Vohidova, N.Rahmonqulova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” Toshkent-2010y.
6. A.Sher, B.Husanov “Estetika”. Uslubiy qo’llanma.Toshkent O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti-2010y.
7. V.Bichkov “Estetika” Moskva-2004y.
8. V.V.Prozerskiy “Estetika” Moskva-Yurant-2017y.
9. Davletshin M.G. “Qobiliyat va uning diagnostikasi” T., “O’qituvchi” 1989 y
10. Karimova V. “Psixologiya” T., “O’qituvchi” 2001 y.